



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARIDA QAHRAMONNING SAFARGA CHIQISH JARAYONI TAHLILI

ANALYSIS OF THE HERO'S DEPARTURE JOURNEY IN THE EPICS OF THE GOROGLY CYCLE

Dinora ABIRQULOVA,

ToshDO‘TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TTCQ8183

Annotation. *This article analyzes the process of the hero's setting out on a journey in the Gorogly epic cycle from an artistic and poetic perspective. The study examines the role of the journey motif in the plot, the reasons for embarking on the journey, the motivating factors that encourage departure, and the attitudes of relatives and close people toward it. The article also highlights such aspects as the hero's journey being not only a physical departure, but also a means of achieving spiritual maturity and emerging as a fully developed individual. This article comparatively examines the journey motif in the epics The Birth of Gorogly, Avazxon, and Alpomish*

Key words: *Gorogly epic cycle, plot, journey motif, composition, folklore, relationships with relatives*

Kirish. Dostonlar, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy ahvoli, qahramonliklari va orzu-umidlarini ifodalovchi xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Jumladan, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari, Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan qahramonlik eposidir.

Tadqiqot natijalari. O‘zbek xalq qahramonlik eposi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida markaziy syujet unsurlaridan biri bo‘lgan qahramonning safarga chiqish jarayoni syujet rivojini harakatga keltiruvchi muhim unsur ekanligi aniqlanadi. Qahramonning yo‘lga otlanishi uning mardlik, qat‘iyatlilik kabi fazilatlarini namoyon etuvchi sinov bosqichi ekanligi yoritiladi. Safar motivi orqali u xalqning orzu-intilishlari, qahramonlik idealini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi ochib beriladi.

Asosiy qism. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari nafaqat folklor ilmida, balki xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, uning xaloskor, mard yigit obrazi orqali butun bir jamiyat dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba ekanligidir.

Bu turkum dostonlarning genezisi, taraqqiyoti, qardosh turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan variant va versiyaliligini to‘liq o‘rganmay turib amalga oshirish imkonsizdir. Jumladan, dostonlarimizdagi asosiy motivlar biri – safar motivining doston syujetiga qay darajada ta’sir o‘tkazishi, qahramonning safarga chiqish sababi, yaqinlar munosabati, safarga undovchi omillar haqida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Alpomish”, “Avazxon” dostonlari orqali tahlil qilamiz.

Folklorimizda safar motivi qahramonning alp bo‘lib yetishishi uchun oldidagi sinovlardan biri hisoblanadi. Safarga chiqishi uning yorga yetishmog‘i, qasos olmog‘i uchun, qahramonning ma’naviy yetilmog‘i uchun bajarilishi kerak bo‘lgan pozitsiyalardan biri hisoblanadi.

Avvalo, qahramonning safarga chiqishi jarayonining o‘zi turli xil ko‘rinishda keladi:

1. Qahramon o'z xohishi bilan safarga o'tlanishi (Go'ro'g'lining tug'ilishi misolida);
2. Yaqinlarining qistovi bilan safarga chiqishi (Alpomish misolida);
3. Yorning o'z maskaniga da'vati orqali (Malika ayyor misolida);
4. Undovchi omil orqali (tush, uzuk), (Kuntug'mish misolida);
5. Diliga tushgan ilohiy sevgi orqali (Avazxon misolida).

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida qahramonning ilk safarga chiqish jarayoni kichiklik paytidan boshlanadi. Go'ro'g'li tog'a yurtini izlab, otasi kimligini, qaysi yurtdan, kimning avlodidan ekanligini bilish uchun hamda Shohdorxonning ta'qibidan qutulish uchun o'z xohishi bilan yo'lga chiqadi. Safarga chiqish jarayonida onasi Bibi Hilol bilan xayrlashib, Rustambekdan rozilik olish ta'rifi:

Olisdan ko'rinar bedovning bo'zi

G'anqillab uchadi ko'llarning g'oz.

Ketar bo'ldim endi Yovmit shahriga,

Tog'a, bo'ling Go'ro'g'libekdan rozi! [Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston, 2021:

80]

Rustambek, Qo'ng'irvoy va chechasi Go'ro'g'liga fотиha berib, safarga kuzatish jarayoni:

Bolam, ketsang aqlimni shoshirdim,

Sirni aytmay g'animlardan yashirdim.

Eson-omon borgin Turkman yurtiga,

Bor, Go'ro'g'li, bir Olloga topshirdim!

Sog'-salomat ko'rgin ota yurtingni.

Safaring, chirog'im, bexatar bo'lsin!

Qo'ng'irboyman chechasi bo'zlashadi,

Rustambekning endi aqli shoshadi,

Quchoqlashib, iskalashib hammasi,

Yarim kecha “Attang! Attang!” deyishadi.

Zor yig'lashib, uchchovlari ko'rishib,

Yarim kecha yo'lni o'nglab Zargardan,

Go'ro'g'lini chiqaripti Rustambek. [Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston, 2021:

84]

Dostonning ushbu holatida qahramon Go'ro'g'li o'z shijoati bilan hech kimning yordami, majburlashi yoki undovi orqali emas, balki yuqorida aytganimizdek, o'zi xohlab, kimligini bilish, o'zligini tanish uchun yo'lga chiqadi. Bu jarayonga uning atrofidagi insonlar, ya'ni Rustambek va uning oilasi ijobiy fikr bildirib, oq yo'l tilab kuzatishadi.

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida bosh qahramon Go'ro'g'lining safarga chiqishining keyingi jarayonlari tog'asi Ahmadbekning lotini olishi uchun, ya'ni chechasi Xoljuvonning qasosini olish, Shirvon yurti podshosi Rayhon arabning qizi Zaydinoyini (chin ismi Xumoroy) olib kelish uchun boshlanadi. Ya'ni bu jarayonda ham Go'ro'g'li hech kimning ta'sirisiz haqiqiy mard yigit timsolida o'ch olish uchun yigitlik, alplik, mardlik obrazi o'laroq namoyon bo'lishiga guvoh bo'lamiz.

Dostonning quyidagi joyida esa boshqa dostonlardan jiddiy farq qiladigan holatga duch kelamiz.

Xoljuvonni Rayhon arab olib ketganidan keyingi vaziyat.

Go'ro'g'libek: “Urayxon podsho elni yig'amiz, ko'pchilik lashkarni uyamiz, Go'ro'g'lini sardori lashkar qilamiz, Shirvonning eliga askar tortib boramiz, Rayhon

podshoni o'ldiramiz, Xoljuvonning lotini olamiz, xazinasini barcha askarlarga talatamiz, deb aytmadimi? Men maslahat bo'lar, deb har kuni poylab yotibman. Xabar yo'q", dedi. Kelgan odamlardan birov aytdi: "Unday choq so'z, maslahat bo'lgan yo'q". Go'ro'g'libek: "Benomuslar", deb so'kib-so'kib bir xilini o'ldirib, bir xillarini qo'lini burab sindirib qoldi, qolgani qochib, shaharga kirdi [Go'ro'g'lining tug'ilishi. Doston, 2021: 130].

Ko'rganimizdek, safarga chiqish uchun Go'ro'g'lidagi or-nomusning kuchliligi, boshqalarga nisbatan qat'iyatliligi namoyon bo'ladi. Yosh bo'lishiga qaramay, tog'asidan farqli holda chin erkaklik g'ururi bilan, tog'asining e'tiborsizligidan jahli chiqqan holda safarga o'zi otlanadi.

Xuddi mana shu jarayonni "Alpomish" dostoni misolida ko'radigan bo'lsak, Alpomishning qat'iyatsizligi, qo'rqqoligi va o'ziga bo'lgan ishonchining pastligini quyidagi epizod orqali bilishimiz mumkin.

Qaldirg'och: "Yuringlar, bek akama borayik, bu xatni berayik, qancha g'ayrati bor ekan, sinayik", deb Hakimbekning qoshiga keldi. Bu xatni shunday berdi, bir mahram oldi. Shu vaqtlarda Hakimbek o'n to'rt yoshga kirgan, mast bo'lgan norday ko'pik sohib o'tirgan, necha mahramlar xizmatida turgan.

Bu xatni o'qib ko'rdi, xatda aytibdi: "Oltoychilik yo'lga keldim, to'qson alpda toy-talashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin", degan xat.

Bu xatni o'qib ko'rib: "Olti oychalik yo'lda bo'lsa, qalmoqning elida bo'lsa, zo'r yovning qo'lida bo'lsa, bir xotin olamiz, deb sandirib o'lamizmi?" deb xatni tizzasining ostiga bosib o'tirdi [Alpomish. Doston, 2023: 96,97].

"Alpomish" dostonida Hakimbekning qalmoq yurtiga borishiga otasi qarshi bo'ladi.

*Choparlar, eshitgin aytgan nalamni,
Obod qilgan bunda kulbaxonamni,
Barchin uchun yubormayman bolamni.
Qaytay, qilsa qalmoq qattiq zulmni,
Bahor bo'lsa tar ochilgan gulimni,
Barchin uchun yubormayman ulimni.
Maydon bo'lsa bedov otlar chopilar,
Chopib kelsa banot² jullar³ yopilar
Bormasin, o'g'lima xotin topilar. [Alpomish. Doston, 2023: 94,94]*

Go'ro'g'li tog'asining indamaganiga, urush qilmaganiga jahli chiqib, uni "benomus" deb atagan edi. Safarga o'z xohishi bilan yo'l olgan edi. Uning yo'lga chiqishi uchun hech kimning qarshiligi va majburlashi kuzatilmaydi. Ammo Alpomishning safarga yo'l olishida unga ko'mak berib turuvchi, yo'lga boshlovchi, hatto "nar-moda" deb ataguvchi ko'makchi obraz – Qaldirg'ochoyimning hissasi bor:

*Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,
Nar-moda¹ ishini bunda qilmagin,
Bu ishdan bexabar bo'lib turmagin
Sen bormasang, yoring qalmoq oladi,
Barchin yig'lab nima iloj qiladi,
So'raganda izlab borsang bo'ladi,
Zo'r bo'lgan qalmoqlar unda qoladi,
Shunday qip er yigit yorin oladi.*

Bu so'zni eshitib, Hakimbek nar-moda degan gapni ko'ngliga og'ir olib, Qultoyning oldiga borishga jazm qilib, harakatga kirishadi. [Alpomish. Doston, 2023: 97,98]

“Avazxon” dostonida esa safarga otlanish, safar sababi yanada o'zgacha aks ettiriladi. Yuqorida aytganimizdek, safarga chiqishning bir qancha sabablari bo'lishi kerak. “Avazxon” dostonida bu sabab Go'ro'g'lining ko'ngliga Avazxonning sevgisi tushgani orqali boshlanadi. Safarga chiqish jarayonida barcha amaldorlar-u parilar, xonlar va beklar ijobiy fikr bildirib turishi kuzatiladi. Masalan, mana bu misralarga diqqat qarating.

Ana endi qirq yigit boshliq Doniyor otaliq Go'ro'g'liga qarab:

*Bir xizmat buyursangiz, bizar qilardik
Tinmay cho'lda bedovlarni yelardik,
Xunxor shohning bol Avazjon mahramin,
Buyursangiz, bizar olib kelardik.
Andan keyin biz bearmon bo'lardik.*

*Ko'mir qilib kelsak tog'ning bodomin
Dushmanning yurakdan ketkarmay g'amin,
Suluvligi oyday emish Avazning,
Olib kelsak Munsik xonning mahramin.*

Safar jarayoni uchun xon va mahramlar yordam berishi, Avazxonni Xasanxon boshliq qirq yigit olib kelmoqchi bo'lishi kuzatiladi. Ammo ko'ngliga tushgan ilohiy muhabbat orqali bu ishni faqat Go'ro'g'ligina uddalay oladi.

Dostonlarimizda qahramonlarning safarga chiqishida ular bilan birga sinaluvchi, qahramonga ko'maklashuvchi, to'siqlarni birga yengib o'tishiga yordam beruvchi ot obrazi ham faol hisoblanadi.

“Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida Go'ro'g'li g'ayriqutbi hisoblanmish Rayhon arab yurtiga, Shohimardon pir va qirq chilton yordamida may ichkizib, alpga xos qilib tayyorlangan ot – G'irkok bilan birgalikda otlanadi.

Majlisda o'ltirgan hamma azizlar antaxur maydan navbatlari bilan ichib, Go'ro'g'libekka ham navbat kosalarini berdi. Shunda Go'ro'g'li sharob ichib sohibqiron bo'ldi – sohibqironlikni G'iro't ko'tara olmaydi. Endi G'iro'tga ham bir kosa maydan beringlar, dedi. Go'ro'g'libekning G'iro'tiga ham bir kosa sharobdan suvga qo'shib berdilar.

“Alpomish” dostonida esa dushman yurt, g'ayriqutb sanalmish Surxayil kampirning oldiga Alpomish bobosi Dobonbiydan qolgan qo'riqni uch marta otib tanlagan Boychibor bilan birga yo'lga chiqadi: Hakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi. “Saman sariga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush”, deb qo'riqni soldi, yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi. Ko'nglidagi bo'lmay, otdan ko'p ko'ngli to'lmay: “Ko'p nozik uchradi”, deb bu otni qo'yib yubordi. Yana qo'riqni soldi, tag'i shuning bo'yniga tushdi. “Bir balo qilasanmi yo yomonlab o'lasanmi, menga dardisar bo'p qolasanmi?” deb qo'yib yubordi. Qaytarib tag'i qo'riq soldi, tag'i shu chiporning bo'yniga tushdi. “Taqdirdagi shul ekan-da”, deb belbog'ini otining bo'yniga solib, egar-abzalining qoshiga yetaklab kela berdi, egar-abzalining qoshiga borib, u yoq-bu yog'ini ko'ra berdi [Alpomish. Doston, 2023: 109].

“Avazxon” dostonida esa Go'ro'g'liga doim yordam beruvchi G'iro't obrazi orqali Avazni olib kelishi tasvirlanadi.

Ko'rganimizdek, “Alpomish” dostonida safarga chiqishga yaqinlari, ya'ni otasi qarshi bo'lishi, singlisi yordam berishi kuzatiladi. “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida esa

Ahmadning beparvoligi Go'ro'g'liga yoqmay, harakatni o'zi boshlashi tasvirlangan. "Avazxon" dostonida bu holat befarzandlik, ilohiy sevgi bilan bog'liq bo'lib, Go'ro'g'li Avazning ta'rifini eshitib unga yetishmoq uchun safarga o'tlanadi.

Xulosa. Yuqorida ko'rgan uch dostonimiz misolida ham safarga chiqish jarayoni dostonning syujetiga katta ta'sir ko'rsatgan. "Alpomish", "Avazxon" hamda "Go'ro'g'li" dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tasodifiy hodisa emas, balki syujetning tugun boshlangan keyingi rivojini boshlab beruvchi asosiy kompozitsion vosita hisoblanadi. Har uchala dostonida safarning sababi turlicha ko'rinsa-da, ularning mohiyatida aynan qahramonning sinov va to'siqlardan o'tishi, adolatni tiklash, yaqin insonini qutqarish, ma'naviy kamolotga erishish va qahramonlik burchini ado etish g'oyasi mujassamlashgan.

Alpomishda safar Barchinni qo'lga kiritish va nomusni himoya qilish maqsadida boshlanib, qahramonning jismoniy va ruhiy sinovlardan o'tishini ta'minlaydi. Avazxonda safar ko'proq nasl davomiyligi, sadoqat va jasoratni namoyon etuvchi vosita bo'lsa, Go'ro'g'li dostonida safar zulmga qarshi kurash, tenglik va adolatni saqlash, or-nomus masalasi va qahramon shuhratini yoyish bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Safar motivining syujetga ta'siri shundaki, voqealarning asosiy tugunlari aynan safar motivi orqali yechim topadi. Yangi qahramonlar uchraydi, raqiblar bilan to'qnashuv sodir bo'ladi, sinov va kurashlar kuchayadi, qahramon xarakteri ochiladi.

Agar safar motivi bo'lmaganida, ushbu dostonlarda voqealar rivoji, sarguzasht ruhi va qahramonning kamolot bosqichlari to'liq namoyon bo'lmas edi. Shu bois safar motivi syujetning harakatlantiruvchi markazi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Avazxon" doston. – Toshkent: Zabarjad Media, 2025. – b. 176.
2. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. – b. 208.
3. Alpomish: Xalq og'zaki ijodi/ "Alpomish" dostonlar turkumidan. – Toshkent: Zukko Kitobxon, 2023. – b. 576.

